O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti axborot xati

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 223-sonli qaroriga muvofiq Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamda Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi hamkorlikda **2022-yil 12-dekabr kuni soat 10:00 da O’zR FA akademigi, fan arbobi Naim Karimovning 90 yilligi munosabati bilan “O’zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman oflayn-onlayn tarzda** o’tkaziladi.

Anjumanda mamlakatimiz va xorijdagi sohaning yetuk mutaxassislari, olimlar, professor-o’qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqodchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar o’z maqola va tezislari bilan ishtiroq etishi mumkin.

ILMIY-NAZARIY ANJUMAN IShINING YO’NALIShLARI:

1. Naim Karimovning ilmiy ijodi va uning ahamiyati;

2. Jadid adabiyotini o’rganish masalalari;

3. XX asr adabiyotiga nazariy yondashuv va metodlar;

4. Yangi o’zbek nasri tahlili va talqindagi turfaliklar;

5. Yangi o’zbek she’riyati: mavzu va muammo;

6. O’zbek adabiyoti: tadqiq va talqin;

7. Adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid masalalari;

8. Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MAQOLA VA TEZISLAR MATNIGA TALABLAR:

Anjuman o’z ishini o’zbek tilida olib boradi. Taqdim etiladigan maqolalarga qo’yiladigan talablar:

Anjumanga taqdim etilayotgan ma’ruzalar dolzarb muammolar yechimiga bag’ishlangan yoki muhim amaliy ahamiyatga ega bo’lgan masalalarni o’z ichiga olgan bo’lishi lozim. Maqola hajmi – 5-10 bet bo’lishi, maqola matni doc. formatida, 1,5 intervalda, o’ng tomondan – 30 mm, chap tomondan – 15 mm, yuqori va pastdan – 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegl shriftda tayyorlanadi; havolalar iqtibos olingan gap ortidan adabiyotlar ro’yxatida keltirilgan familya to’liq tarzda, ismning bosh harfi yoziladi va ro’yxatdagi raqami keltiriladi, qo’sh nuqtadan keyin iqtibos olingan sahifa raqami qo’rsatiladi [Normatov U. 1:18]; maqola nomi 12 so’zdan ortmasligi; mavzuning nomi katta harflar bilan qoraytirib, qatorning o’rtasida avtomatik tarzda yozilishi; keyingi qatorga o’ng tomondan tekislab, ma’ruzachining familiyasi va ismi, undan keyingi qatorga ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, undan ham keyingi qatorga uning ish joyi va lavozimi yozilishi; (shu o’rinda tashkilotchilar mualliflar bilan bog’lanishi uchun telefon raqamlar qoldirilishi lozim) agar mualliflar bir nechta bo’lsa, keyingi mualliflar haqida ma’lumotlar xuddi birinchi muallif haqida berilgan ma’lumot kabi keyingi qatordan beriladi; maqola annotatsiyasi (faqat o’zbek tilida) maqola matnidan oldin berilishi lozim; annotatsiyadan so’ng kamida 5-7 ta kalit so’z keltirilishi shart; maqola matni kalit so’zlardan keyin ikki interval pastdan berilishi kerak. Foydalangan adabiyotlar ro’rxati alifbo tartibida berilishi lozim. Materiallar 2022-yilning 20-oktyabr kuniga qadar +99893-714-86-46 raqamidagi telegram orqali qabul qilinadi. Maqolalardagi ma’lumotlar va ularning ilmiy nazariy asoslanganligi uchun mualliflar mas’ul. Kechiktirilgan va talablarga javob bermaydigan maqolalar qabul qilinmaydi va to’plamga kiritilmaydi.

Anjumanga taqdim etilgan materiallarni mualliflarga elektron to’plam (PDF) shaklida taqdim etish ko’zda tutilgan.

(To’lov shartlari: Anjuman materiallari to’plami PDF elektron shaklida tayyorlanadi. Maqolaning har bir sahifasiga 10. 000 (o’n ming) so’m miqdorida el.nashr puli to’lanadi). Mualliflarga elektron to’plam va sertifikat (PDF) berish ko’zda tutilgan.

Anjuman haqida https://t.me/+5-7aL-DVJllhZjgy telegramdagi guruhdan xabardor bo’lib borishingiz mumkin.